



Published on *Xalq Banki* (<http://xalqbanki.uz>)

"Korporativ Mobil banking" interaktiv xizmat turi

Yangilangan sana: Tue, Dekabr, 11, 2018

"**Korporativ Mobil banking**" interaktiv xizmati orqali mijozlar (yuridik shaxslar) o'z hisob-raqamlarini mobil aloqa vositalariga o'rnatilgan maxsus dasturiy ta'minot orqali dunyoning istalgan nuqtasidan boshqarishlari mumkin.

"**Korporativ Mobil banking**" tizimi zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan

Ushbu tizim yordamida Siz:

- Pullarni o'z hisob raqamingizdan istalgan bankning har qanday boshqa hisob raqamiga o'tkazish;
- O'z hisob raqamingizdagi harakatlar haqida ma'lumot olish;
- Hisob-raqam bo'yicha ko'chirma olish;
- O'z hisob raqamingizdagi qoldiqlarni kuzatish;
- Bankka o'tkazilgan to'lov hujjatlari arxivini yuritish;
- Hisob raqamdagi mablag'lar holati va harakati bo'yicha hisobotlar olish

"**Korporativ Mobil banking**" xizmat turiga ulanish juda sodda bo'lib, buning uchun faqat bizning bankda hisob raqamingiz bo'lishi va shu tizimda xizmat ko'rsatish shartnomasini imzolashingiz kerak. Tizim xujjatlarni to'g'ri to'ldirilishini tubdan nazorat qilib, xatolarni ko'rsatib boradi. To'lov xabarnomalarini rasmiylashtirishda xatolikka yo'l qo'yib hujjatni jo'natgan holatingizda ham Siz uni zudlik bilan to'xtatishingiz mumkin va bunda hisob raqami bo'yicha operatsiya amalga oshirilmaydi.

Mijozlarni tizimga ulash maxsus sertifikat yordamida amalga oshiriladi.


Aksiyadorlik tijorat Xalq banki mijozlarga oid operatsiyalar maxfiyligini ta'minlashga kafolat beradi

Mobil ilovani [AppStore](#) [1] va [GooglePlay](#) [2] dan yuklab olish mumkin

Files:

Ilova

O'lchami

 [Korporativ Mobil banking](#) [3] 149.81 KB

Links

[1] <http://xalqbanki.uz/uz/business>

[2] <https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.fb.cib.mobile.xb>

[3] http://xalqbanki.uz/sites/default/files/page_files/mbank.pdf